

#O'zbek-Xitoy: Zoologiya fani rivoji uchun xalqaro istiqbolli rejalar muhokama qilindi



Joriy yilning 13-17-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya institutiga Xitoy Fanlar Akademiyasi Zoologiya instituti direktori, professor Qiao Gexia va Xitoy Milliy Zoologiya muzeyi direktori professor Chen Jun lar tashrif buyurishdi.

Tashrif mobabaynida mehmonlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashkil topganligining 80 yilligiga bag'ishlangan "Ilm-fan - Yangi O'zbekiston poydevori" mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etishdi.

O'zR FA Zoologiya instituti direktori Baxtiyor Xolmatov tomonidan xalqaro hamkorlar bilan Xitoy Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti bilan ikki tomonlama hamkorlik qilish masalalari, yosh olimlarni Xitoyda PhD tadqiqotlarini olib borilishi va hamkorlikdagi yangi loyihalar muhokama qilindi.

O'zR FA Zoologiya instituti huzurida O'zbekiston-Xitoy qo'shma markazi va uning negizida qo'shma laboratoriyalar tashkil etish masalalari kelishib olindi. Kelgusida rejalashtirilayotgan ishlardan samarali natija kutilayotgani alohida ta'kidlandi va bu yo'nalishda hamkorlikda amalga oshiriladigan istiqbolli rejalar haqida fikr almashildi.

Xitoy Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti bilan hamkorlikda kelgusi yili O'zbekistonda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan "Hasharotlar xilma-xilligini baholash va monitoring tizimining asosiy texnologiyalari" mavzusidagi xalqaro trening kurs dasturi muhokama qilindi.

O'zR FA Zoologiya instituti, Xitoy Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti va Samarqand davlat universiteti Zoologiya kafedrasi olimlari bilan Uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvda hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish, ekspeditsiyalar tashkil etish, talabalar almashinuvi va hamkorlikdagi ishlarning samaradorligini yanada oshirish masalalari kelishib olindi.